



UDK: 94(575.1):711.4(091)

Jamshid PIRIMQULOV,

PhD, katta ilmiy xodim, O'zR FA O'zbekiston tarixi davlat muzeyi filiali Toshkent muzeyi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: jamper180888@gmail.com; <https://ORCID.org/0000-0002-6681-2680>

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti dotsenti, PhD T.Norkobilov taqrizi asosida.

TOSHKENTNING TARIXIY MA'MURIY TUZILMASIDA O'RDALARNING O'RNI

Annotation

Mazkur maqolada Toshkent shahri tarixida muhim o'rin tutgan o'rdalarning shakllanishi, rivojlanishi va bugungi kungacha yetib kelgan tarixiy izlari tahlil qilinadi. Qadimiy Shosh davridan Qo'qon xonligi davrigacha mavjud bo'lgan o'rdalar nafaqat siyosiy-ma'muriy markazlar, balki xalqning moddiy va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan tarixiy-madaniy obyektlar sifatida baholanadi. Tadqiqotda ushbu meros obyektlarining muzeyshunoslikdagi ahamiyati, ularni saqlash, tadqiq etish va keng jamoatchilikka targ'ib qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent o'rdalari, moddiy meros, ma'naviy meros, muzeyshunoslik, tarixiy yodgorlik, Mingo'rik, Eskijo'va, Qo'qon xonligi, madaniy meros.

THE ROLE OF ORDAS IN TASHKENT'S HISTORICAL ADMINISTRATIVE SYSTEM.

Annotation

This article analyzes the formation, development, and historical traces that have survived to the present day of the ordas, which occupied an important place in the history of Tashkent. From the period of ancient Shash to the era of the Kokand Khanate, these ordas served not only as political and administrative centers but also as historical and cultural sites embodying the material and spiritual heritage of the people. The study highlights the significance of these heritage objects in museology, as well as issues related to their preservation, research, and promotion among the wider public.

Keywords: Tashkent ordas, material heritage, spiritual heritage, museology, historical monument, Mingurik, Eski Juva, Kokand Khanate, cultural heritage.

РОЛЬ ОРД В ИСТОРИЧЕСКОЙ АДМИНИСТРАТИВНОЙ СТРУКТУРЕ ТАШКЕНТА

Аннотация

В данной статье анализируются процесс формирования, развития и сохранившиеся до наших дней исторические следы орд, занимавших важное место в истории города Ташкента. Орды, существовавшие с периода древнего Шаша до эпохи Кокандского ханства, являлись не только политико-административными центрами, но и историко-культурными объектами, воплощающими материальное и духовное наследие народа. В исследовании раскрывается значение данных объектов наследия в музееведении, а также рассматриваются вопросы их сохранения, изучения и популяризации среди широкой общественности.

Ключевые слова: Ташкентские орды, материальное наследие, духовное наследие, музееведение, исторический памятник, Мингурик, Эски-Джува, Кокандское ханство, культурное наследие.

Kirish. Globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan, madaniy merosni asrash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalalari xalqaro miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etayotgan bugungi sharoitda tarixiy-madaniy obyektlarni ilmiy o'rganish va muzeylashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy davlatchilik tarixi, urbanizatsiya jarayonlari va madaniy taraqqiyot bosqichlarini aks ettiruvchi tarixiy yodgorliklar xalqning tarixiy xotirasini shakllantirish hamda milliy o'zlikni anglashda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tarixiy-madaniy meros obyektlari nafaqat tarix fanining, balki muzeyshunoslik, merosshunoslik, arxeologiya va madaniyatshunoslik kabi fanlarning ham muhim tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyoning eng qadimiy va uzluksiz rivojlangan shaharlaridan biri bo'lgan Toshkent ko'p asrlik tarix davomida yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaz sifatida shakllangan. Shahar hududida turli davrlarda vujudga kelgan o'rdalar davlat hokimiyati, harbiy boshqaruv va ma'muriy tizimning markaziy bo'g'ini vazifasini bajargan. O'rdalar hukmdor qarorgohi sifatida nafaqat siyosiy qarorlar

qabul qilinadigan maskan, balki shahar hayotining iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jarayonlari mujassamlashgan tarixiy makon sifatida ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois ular Toshkentning urbanistik taraqqiyoti, davlatchilik an'analari va madaniy rivojlanish bosqichlarini o'rganishda noyob ilmiy manba hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Toshkent o'rdalari bilan bog'liq tarixiy-arxeologik meros bugungi kunda yetarli darajada tizimli ravishda muzeylashtirilmagan hamda ularning ilmiy va ekspozitsion salohiyati to'liq ochib berilmagan. Holbuki, mazkur obyektlar O'zbekiston davlatchiligi tarixini, shaharsozlik madaniyatini va tarixiy xotira mexanizmlarini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, madaniy meros obyektlarini saqlash, konservatsiya qilish va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida keng jamoatchilikka taqdim etish masalalari bugungi muzeyshunoslikning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Toshkent o'rdalari qoldiqlari va ular haqidagi yozma manbalar, arxeologik topilmalar hamda tarixiy toponimlar xalqimizning moddiy va nomoddiy merosini o'zida mujassam etgan kompleks tarixiy-madaniy majmua sifatida alohida

ahamiyatga ega. Ular orqali qadimgi va o'rta asrlardagi boshqaruv tizimi, harbiy tashkilot, shahar infratuzilmasi, diniy-ma'rifiy muhit va ijtimoiy munosabatlar haqida qimmatli ilmiy ma'lumotlar olish mumkin. Shu jihatdan o'rdalarni o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatlarni tiklash, balki milliy madaniy merosni saqlash va ommalashtirishning muhim omili sifatida ham namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi Toshkent o'rdalarining tarixiy taraqqiyotini, ularning moddiy va ma'naviy meros sifatidagi ahamiyatini hamda muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy va ekspozitsion salohiyatini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot davomida Toshkent o'rdalarini muzeylashtirish, zamonaviy interpretatsiya vositalari orqali targ'ib qilish va madaniy meros obyektlari sifatida saqlashning istiqbolli yo'nalishlari yoritiladi. Bu esa Toshkent o'rdalarining milliy madaniy meros tizimidagi o'rnini yanada chuqurroq anglash hamda ularni zamonaviy muzey amaliyotiga integratsiya etish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Mazkur tadqiqot tarixiylik, ilmiy xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tarixiy tahlil tamoyillariga tayangan holda amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida Toshkent o'rdalarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va transformatsiyasi tarixiy jarayonlar kontekstida o'rganilib, ularning siyosiy-ma'muriy, ijtimoiy va madaniy funksiyalari kompleks tahlil qilindi. Shuningdek, tarixiy manbalar, arxeologik qazilmalar natijalari, topografik ma'lumotlar, o'lkashunoslik materiallari hamda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilishga oid ilmiy tadqiqotlar qiyosiy tahlil usulida o'rganildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik negizini madaniy merosshunoslik, urbanistika va muzeyshunoslik fanlarining zamonaviy konsepsiyalari tashkil etadi. Xususan, tarixiy-madaniy landshaftlarni o'rganish, moddiy va nomoddiy merosning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda tarixiy xotira konsepsiyalariga asoslangan yondashuvlardan foydalanildi. O'rdalar nafaqat me'moriy-arxeologik obyekt, balki davlatchilik an'analari, shahar boshqaruvi va madaniy identifikatsiyaning tarixiy ifodasi sifatida talqin qilindi.

Muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqotda obyektga yo'naltirilgan (object-based research) hamda interpretativ tahlil metodlari qo'llanildi. Ushbu yondashuv orqali Toshkent o'rdalarining muzeylashtirish salohiyati, ekspozitsion va kommunikativ imkoniyatlari, tarixiy rekonstruksiya hamda raqamli vizualizatsiya vositalari orqali keng jamoatchilikka taqdim etish istiqbollari baholandi. Shuningdek, tarixiy yodgorliklarni konservatsiya qilish, interpretatsiya etish va madaniy turizm obyektlariga aylantirishning zamonaviy tajribalari tahlil qilinib, Toshkent o'rdalarini muzeylashtirishning istiqbolli yo'nalishlari aniqlandi.

Toshkent o'rdalarining tarixiy taraqqiyoti. Manbalarga ko'ra, qadimiy Toshkent hududida turli davrlarda bir necha o'rda faoliyat ko'rsatgan.

Dastlabki o'rda Toshkentning hozirgi Movarounnahr, Said Baraka, Moshtabib va Farg'ona yo'li ko'chalari oralig'idagi kattagina maydonni egallagan bo'lib, u qadimgi Shosh poytaxti sifatida faoliyat yuritgan. Mazkur manzilgohning faqat 100x40 metrli kichik bir qismigina bizning davrimizgacha saqlanib qolgan. Mingo'rik deb atalgan tepalikda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida, bu yerda qadimgi Shosh davlati poytaxtining 0,5 gektarga teng o'rdasi ekanligi ma'lum bo'ldi [6]. O'rda mudofaa devorlari va o'z shahristoniga ham ega bo'lgan. 713 yilda Chochoq kirib kelgan arab qo'shinlari tomonidan shahar vayron qilingan. 1830-yillarda Qo'qon xonligi davrida shahar qoldiqlari o'rnida o'rikzorlar barpo qilingan [1]. Yodgorlikning «Mingo'rik» deb

atalishining sababi shundan. Mingo'rik Shayxontohur dahasining mavzalaridan biri bo'lgan. Toshkentning 2200 yillik yubileyi munosabati bilan konservatsiya qilib qo'yildi.

Toshkentning ikkinchi o'rdasi hozirgi Eskijo'va maydoni hududida bo'lgan (IX–XVI asrlar). X asr tarixchilari Ibn Havqal, Maqdisiy, Istarixiy qoldirgan ma'lumotlarga ko'ra, Toshkentning mazkur o'rdasi alohida devor bilan o'ralib, 2 darvozadan iborat bo'lgan, biridan rabotga, ikkinchisidan shahristonga chiqilgan. O'rda ichida xon saroyi, zarbxona va qamoqxona joylashgan bo'lib, o'rda devoriga tashqaridan jome masjidi tutashgan. Umumiy maydoni 1 gektar atrofida bo'lgan. Shahriston arka qaraganda katta hududni egallab, u ham devor bilan o'ralgan. Shahristonning Abul Abbos, Gumbaz, Qasr nomli uch darvozasi bo'lgan [2]. Darvozalardan biri hozirgi Abror Hidoyatov nomli teatr binosi oldida joylashgan. Shahristonda hunarmandlarning mahallalari, mulkdorlarning ko'shk va qo'rg'onlari, savdo do'konlari bo'lgan. Shahristonning Gulbozor mahallasida butun Turkistonda va Xurosonda murshidlarning piri maqomiga ko'tarilgan, nomi islom dunyosida ulug'langan Xoja Abror Valiy hazratlari tomonidan qurilgan jome masjidi va madrasasi o'rin olgan (XV asr). Shahristonning janubiy-g'arbiy qismida keyinchalik Ko'kaldosh madrasasi qurilgan.

XV–XVII asrlarda shahar hududi Beshyog'och va Anhor bo'yi tomonga kengayishi bilan Beshyog'och dahasining Qoratosh va Olmazor mahallalari hududi o'rnida Yangi o'rda qurilgan. Shahar atrofi yangitidan yagona devor bilan o'ralgan. O'rda hududida ma'muriy binolar va xon saroyi bo'lgan. XVII asr boshlarida Buxoro xoni shahar bilan o'rdani butunlay vayron qilgan. Natijada markaziy boshqarilayotgan katta shahar inqirozga yuz tutib, to'rt dahaga bo'linib ketgan, har bir dahada alohida-alohida beklar shaharni o'z holicha boshqara boshlagan (bu davr chorhokimlik nomi bilan tarixda qolgan). XIX asrda bu yerdagi mahalla Eskio'rda mahallasi nomi bilan mashhur bo'lgan [7]. Eski o'rdadan o'sha davrga xos Qoratosh hammomi xarobalari saqlanib qolgan edi.

XVII–XVIII asrlarda To'rt daha (Beshyog'och, Sebzor, Ko'kcha va Shayxontohur) beklklari o'rtasida tez-tez nizolar chiqib turardi. Chorsu bozorini kesib o'tgan Jangob arig'i bo'ylarida va Janggoh mahallalari hududlarida (hozirgi A. Qodiriy nomli istirohat bog'ining bir qismi) dahalar o'rtasida odiriy janglar bo'lib o'tganligi manbalarda qayd etib o'tilgan [6]. Bu jangda Shayxontohur dahasining hokimi Yunusxo'ja g'olib kelib, shahar hokimligini qo'lga kiritadi. XVIII asrning 80-yillarida Yunusxo'ja Shayxontohur dahasida mudofaa devorlari bilan o'ralgan kichik o'rda qurdirdi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, bu o'rda Anhorning o'ng sohilidagi Qishloq xo'jaligi vazirligi binosi atroflarida bo'lgan. XIX asrning boshlarida Qo'qon xoni Olimxon tomonidan Toshkent bosib olingach, bu o'rda ham vayron qilinadi.

XIX asrning 30-yillarida Qo'qon xoni Anhor kanalining chap sohili (taxminan hozirgi Mustaqillik maydoni o'rnida) yangi o'rda qurdirdi. O'rda ichida mustahkamlangan qasr, garnizon kazarmalari, qurol-yarog' omborlari, hammom va ma'muriy binolar joylashgan edi. Hammom 1966-yildagi zilzila natijasida buzilib ketgan. Uning o'rtasida hozirgi «Anhor» kafesining orqa tarafiga to'g'ri keladi. Hammom devorlarining g'ishtlari esa, 1985-yili Abulqosim madrasasi ta'miriga ishlatish uchun olib kelingan.

O'rda qal'asi 10 ming askar sig'ishiga mo'ljallangan edi. O'rda shahar hokimi uchun maxsus qo'rg'on-qarorgoh vazifasini ham bajargan. Keyinchalik qo'shimcha mudofaa devorlari qurilishi bilan shahar tarkibiga kiritilgan. Qo'qon xonining Toshkentdagi noibi – beklarbegining mahkamasi va xon saroyi ham shu yerda edi. Qo'qon xoni Toshkentga kelganida juda dabdaba bilan kutib olinar edi.

Toshkent Rossiya qo'shinlari tomonidan 1865-yilda bosib olingach, Chernyayev o'z shtabi bilan o'rdadagi xon saroyiga, bosqinchi askarlarning bir qismi saroy yonidagi sarbozlar yotoqxonasiga joylashtirdi. Ofitserlar esa, o'rda tashqarisidagi egasiz qolgan Qashqar mahallasidagi xonadonlarga o'rmasdilar. Lekin mustamlakachilar o'sha yili zudlik bilan qurilgan Tuproqo'rg'onga ko'chib o'tadilar. O'rdadagi xon saroyi, mudofaa devorlari keyinchalik buzib tashlanadi va yangi shaharga qo'shib yuboriladi [5].

Xulosa. Toshkent o'rdalari O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosi tizimida alohida o'rin egallovchi, xalqimizning ko'p asrlik davlatchilik an'analari, shaharozlik madaniyati va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassam etgan noyob tarixiy obyektlar hisoblanadi. Ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlari Toshkent shahrining qadimgi Shosh davridan boshlab XIX asrgacha bo'lgan siyosiy, ma'muriy, harbiy va madaniy taraqqiyot jarayonlarini izchil kuzatish imkonini beradi. Shu jihatdan o'rdalar nafaqat arxeologik yodgorlik, balki mintaqadagi urbanizatsiya, davlat boshqaruvi va madaniy transformatsiyalar tarixini tadqiq etishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent o'rdalari moddiy va nomoddiy madaniy merosning o'zaro uyg'unlashgan tarixiy-madaniy majmuasi sifatida baholanishi lozim. Ularning moddiy qoldiqlari qadimiy me'morchilik va mudofaa tizimlarining rivojlanish bosqichlarini yoritib bersa, ular bilan bog'liq tarixiy xotira, davlatchilik an'analari, diniy-ma'rifiy muhit va mahalliy toponimlar xalqning ma'naviy merosini aks ettiradi. Shu bois o'rdalarni o'rganish jarayonida

merosshunoslikning kompleks yondashuvlarini qo'llash ilmiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Muzeyshunoslik nuqtayi nazaridan Toshkent o'rdalari yuksak ekspozitsion, ta'limiy va kommunikativ salohiyatga ega bo'lgan tarixiy obyektlar sirasiga kiradi. Ularni muzeylashtirish, raqamli rekonstruksiya qilish, virtual ekspozitsiyalar yaratish hamda interaktiv ta'lim dasturlariga integratsiya etish tarixiy merosni saqlash va ommalashtirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa madaniy meros obyektlarining ilmiy muomalaga kengroq jalb etilishiga, tarixiy bilimlarning ommalashuviga hamda jamiyatning madaniy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Toshkent o'rdalarini o'rganish va saqlash masalasi madaniy merosni muhofaza qilishning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida davlat, ilmiy muassasalar va muzeylar hamkorligini talab etadi. Kelgusida arxeologik tadqiqotlarni kengaytirish, mavjud manbalarni tizimlashtirish, GIS va 3D modellashirish texnologiyalarini qo'llash hamda o'rdalar bo'yicha maxsus muzey-ekspozitsion loyihalarni ishlab chiqish ushbu tarixiy obyektlarning ilmiy va madaniy ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Demak, Toshkent o'rdalari nafaqat o'tmishning moddiy qoldig'i, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ijtimoiy-madaniy resurs sifatida alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ularni kompleks tadqiq etish, muzeylashtirish va zamonaviy interpretatsiya vositalari orqali targ'ib qilish O'zbekiston madaniy meros siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Хорошхин А.П. Очерки Ташкента. // Сборник статей касающихся до Туркестанского края. — СПб., — 1876.
2. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. — Ташкент, 1912.
3. Зинин С.И. О микротопонимии Ташкента. // Общественные науки в Узбекистане. — Ташкент, 1967. — №2.
4. Z.X. Orifxonova. Toshkent mahallalari: an'analar va zamonaviylik. — Toshkent: "Yangi asr avlodi", — 2002.
5. Ismailova J.X. XIX asr ikkinchi yarimi — XX asr boshlarida Toshkentning "yangi" shahar qismi tarixi. — Toshkent: "Fan va texnologiya", — 2004.
6. Зияев А. Базары Ташкента в прошлом и настоящем. Историко-архитектурный очерк. — Ташкент: Изд-во «Санъат», — 2008.
7. Bo'riyeva X. Toshkent shahrining tarixiy toponimiyasi (XIX asr oxiri - XX asr boshlari). — Toshkent: "Noshirlik yog'dusi", — 2009.